

**LOYIHALARNING MOLİYAVIY SAMARADORLIK
KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

Xalmuratova Elmira Nietbayevna

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti, magistratura
bosqichi talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston bank tizimining 2024–2025 yillar davomidagi moliyaviy samaradorligi tahlil qilinib, bank daromadlari, xarajatlari va sof foyda ko'rsatkichlarining dinamikasi yoritilgan. An'anaviy boshqaruv modellarining cheklovlari tahlil qilinarkan ekan, xususan, Waterfall modeli kabi yondashuvlarning o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda samarasizligi va moslashuvchanlik yetishmasligi natijasida loyihalarning kechikishi, xarajatlar oshishi hamda mijoz qoniqmasligi kabi muammolar keltirib chiqarayotgani ko'rsatib o'tilgan. Bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari — ROA, ROE, foizli va foizsiz daromadlar, xarajatlar hamda kredit xavflari tahlili orqali tizimning barqarorlik darajasi va moliyaviy holati baholangan. Shu bilan birga, loyihalarning moliyaviy samaradorligini aniqlovchi investitsion ko'rsatkichlar — ROI, IRR va Payback Period asosida loyihalarning jozibadorligi va sarmoyaviy xavfi baholangan. Maqolada 2017–2022 yillardagi makroiqtisodiy o'sish, sanoat kengayishi, eksport hajmining ortishi va xorijiy investitsiyalar oqimi singari omillar bank va biznes loyihalarning moliyaviy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Xulosa o'rnida, loyihalarning moliyaviy bahosi bozor sharoitlari, davlat siyosati va islohotlar kontekstida kompleks yondashuv asosida olib borilishi lozimligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy samaradorlik, ROI, IRR, Payback Period, bank tizimi, sof foyda, foizli daromad, adaptiv boshqaruv, loyiha boshqaruvi, iqtisodiy islohotlar.*

Annotation: *This article analyzes the financial efficiency of Uzbekistan's banking system during the period of 2024–2025, highlighting the dynamics of bank*



revenues, expenses, and net profit indicators. It also examines the limitations of traditional management models—specifically, the inefficiency of linear approaches like the Waterfall model in rapidly changing economic environments. Such models often lead to project delays, increased costs, and customer dissatisfaction due to their lack of flexibility. The article assesses key financial indicators of the banking system — ROA, ROE, interest and non-interest income, expenses, and credit risks — to evaluate the sector's stability and financial health. Furthermore, it evaluates the financial efficiency of projects using investment metrics such as ROI, IRR, and Payback Period, which reflect project attractiveness and investment risk. The study highlights that macroeconomic growth from 2017 to 2022, industrial expansion, export increases, and a surge in foreign investments have directly influenced the financial performance of banks and business projects. In conclusion, it is emphasized that financial evaluation of projects must be conducted through a comprehensive approach, taking into account market conditions, government policy, and the broader context of economic reforms.

Keywords: financial efficiency, ROI, IRR, Payback Period, banking system, net profit, interest income, adaptive management, project management, economic reforms.

Kirish

Moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida loyihalarni baholash, loyiha investitsiyalarining qaytarilishini va ularning ijobiy samaradorligini aniqlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ahamiyati, loyihalarning moliyaviy natijalarini turli ko'rsatkichlar, masalan, NPV (Toza hozirgi qiymat), IRR (Ishlab chiqarishning ichki daromad stavkasi) va ROI (Investitsiyalardan qaytish) orqali baholash usullarini rivojlantirishda yotadi.

Moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari, investitsiyalarning samarali yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar loyihaning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, moliyaviy tahlil qilish va investorlar uchun riskolarni minimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, loyihalarni baholashning yangicha usullari va alohida ko'rsatkichlarning rivojlanishi



iqtisodiyotni tubdan yaxshilash va samarali sarmoyalar kiritishga olib kelishi mumkin.

Neoklassik moliya nazariyasi nuqtai nazaridan, investitsiya qarorlarini qabul qilishda pulning vaqt qiymati, xatarlar va daromadlar munosabati asos sifatida olinadi. Pelmskayaning nazariy yondashuvida **loyihalarning xavfsizligini** baholash uchun **senariy tahlili**, **senzitivlik tahlili** va **Monte Carlo simulyatsiyasi** kabi nazariy asoslangan instrumentlardan foydalanish tavsiya etiladi. Asarda kapital narxi va vaqt omilining nazariy asoslari keng yoritilgan va CAPM (Capital Asset Pricing Model) modeli asosida **diskontlash stavkasini** hisoblash usullarini tushuntiradi.[1]

Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Economic Efficiency Theory) nuqtai nazaridan, investitsiya loyihasi jamiyat uchun maksimal foyda keltirishi kerak. Loyiha umumiy ijtimoiy foydani oshirsa, u iqtisodiy jihatdan samarali deb hisoblanadi. Buni baholashda **foyda-xarajat tahlili (Cost-Benefit Analysis, CBA)** asosiy instrument hisoblanadi.[2]

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va innovatsion loyihalarning ko'payishi sharoitida loyihalarning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Har bir loyiha bo'yicha sarmoyaning qaytish darajasi (ROI), ichki foyda normasi (IRR) va to'lov muddati (Payback Period) kabi ko'rsatkichlarni aniqlash nafaqat investorlar uchun, balki davlat va xususiy sektor tomonidan qabul qilinadigan qarorlar uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlar yordamida loyiha qaytish muddatiga iqtisodiy maqsadga muvofiqligi, xavf darajasi va rentabelligi baholanadi, bu esa resurslarni samarali taqsimlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada loyihalarning moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va baholash uchun empirik tahlil, statistik ma'lumotlarga asoslangan solishtirma tahlil hamda keys-stadi (konkret loyiha misollarini o'rganish) usullaridan foydalanildi. O'zbekiston bank tizimi va iqtisodiyotida 2024–2025 yillar davomida



amalgama oshirilgan loyihalar misolida ROI (investitsiya qaytishi), IRR (ichki foyda normasi) va Payback Period (to'lov muddati) ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi hamda ularning dinamikasi baholandi. Xalqaro tajriba asosida loyihaviy moliyaviy ko'rsatkichlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha tahliliy yondashuv qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi

Loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholashda klassik va zamonaviy investitsiya baholash nazariyalari asosiy nazariy platforma sifatida xizmat qiladi. Jumladan, neoklassik investitsiya nazariyasi, diskontlangan pul oqimlari modeli (DCF), CAPM, real opsionlar nazariyasi va iqtisodiy samaradorlik nazariyasi loyihalarni baholashda keng qo'llaniladi.

Pelinskaya (2016) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda loyiha investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar – NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return), PI (Profitability Index) va Payback Period nazariy asosda tahlil qilingan. Ushbu ko'rsatkichlar investitsiyalarning foydalilik darajasini, sarmoyaning qoplanish tezligini va loyiha xavfsizligini aniqlashda muhim o'rin tutadi.[3]

Loyihalarning tavakkalchiliklarini aniqlashda senzitivlik tahlili, senariy tahlili va Monte-Karlo simulyatsiyasi kabi usullar tavsiya etiladi. Bu instrumentlar loyiha natijalari turli iqtisodiy sharoitlarda qanday o'zgarishini bashorat qilish imkonini beradi. Kapital narxini aniqlashda esa CAPM (Capital Asset Pricing Model) modeli asosida diskont stavkasi hisoblab chiqiladi. Bu metod sarmoyaning xavfi va daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga yordam beradi[4].

Diskontlash nazariyasi asosida, kelajakdagi pul oqimlarini hozirgi qiymatga keltirish orqali loyiha qiymati aniqlanadi. Bu yondashuv NPV va IRR kabi indikatorlarning ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Berechman, 2009) loyihalarning jamiyatga keltiradigan umumiy foydasini baholashni taklif qiladi[5]. Mazkur yondashuv orqali moliyaviy natijadan tashqari, ijtimoiy foyda ham inobatga olinadi.



Real opsiyalar nazariyasi esa loyiha amalga oshirilishi davomida qarorlarni bosqichma-bosqich, sharoitga mos holda qabul qilish imkonini beradi. U loyiha natijalaridagi noaniqlik va moslashuvchanlikni baholashda foydali hisoblanadi. Berehman tomonidan taklif etilgan bu yondashuv ayniqsa, uzoq muddatli va murakkab moliyaviy loyihalar uchun samarali hisoblanadi.[6]

Shuningdek, investitsiya samaradorligi va kapital byudjetlash bo'yicha adabiyotlarda WACC (Weighted Average Cost of Capital) tushunchasi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich investitsiya bahosini real qiymatga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.[7]

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar asosida loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholashda quyidagi jihatlar muhim deb topilgan:

- sarmoyaning hozirgi va kelajak qiymatini inobatga olish (DCF),
- investitsiya xavflarini to'g'ri baholash (CAPM, senzitivlik tahlili),
- qarorlarni shart-sharoitga qarab moslashtirish (Real options),
- iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni kompleks baholash (CBA).

Loyihalarning moliyaviy samaradorligini chuqur va ishonchli baholash uchun yuqoridagi nazariyalar va ko'rsatkichlar majmuasi birgalikda qo'llanilishi zarur. Bu esa sarmoyaviy qarorlarning asosli, xavfsiz va barqaror qabul qilinishiga xizmat qiladi.[8]

Tahlil va natijalar muhokamasi

Bank tizimining moliyaviy samaradorligi iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhimdir. Har yili banklar faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ularning daromadligi, xavf darajasi hamda umumiy iqtisodiy ta'siri baholanadi. Tadqiqotda 2024 yil 1 apreldan 2025 yil 1 aprelgacha bo'lgan davrda O'zbekiston bank tizimidagi asosiy daromad va xarajat ko'rsatkichlari hamda ularning moliyaviy samaradorligi tahlili yoritiladi.

1- jadval

Bank loyihalarining moliyaviy samaradorligi tahlili (2024–2025 yillar)



Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	O'sish / O'zgari sh	Izoh	Ko'rsatkich
Foizli daromadlar	30,4 trln so'm	43,5 trln so'm	+13,1 trln so'm	Iqtisodiy faollik va kredit portfeli kengaygani uchun	Foizli daromadlar
Foizsiz daromadlar	6,6 trln so'm	10,6 trln so'm	+4,0 trln so'm	Komissiya va xizmat haqlari ortgan	Foizsiz daromadlar
Loyiha samaradorligi ijobiy (%)	65%	84%	+19%	Loyiha boshqaruvi sifati oshgan	Loyiha samaradorligi ijobiy (%)
NPV (To'liq loyihada)	2,35 mlrd so'm	3,80 mlrd so'm	+1,45 mlrd so'm	Investitsiya qiymati oshgan	NPV (To'liq loyihada)
IRR (Ichki daromadlilik normasi)	19,7%	27,2%	+7,5%	Loyiha moliyaviy jihatdan jozibador bo'lgan	IRR (Ichki daromadlilik normasi)
ROI (Sarmoyada n qaytish)	23,4%	41,7%	+18,3%	Sarmoya samaradorligi ancha yuqori	ROI (Sarmoyada n qaytish)
Payback Period	3,2 yil	2,4 yil	-0,8 yil	Tezroq o'zini oqlay boshlagan	Payback Period



(Qoplash muddati)					(Qoplash muddati)
Loyihalarda xodimlarning roli (%)	45%	67%	+22%	Kadrlar salohiyati va motivatsiyasi oshgan	Loyihalarda xodimlarning roli (%)
CFCR (Naqd pul qoplash koeff.)	1,34	1,75	+0,41	Pul oqimining barqarorligi yaxshilangan	CFCR (Naqd pul qoplash koeff.)
Yillik tahlilga asoslangan xulosa	Moliyaviy ijobiy	Moliyaviy yuqori	Rivojlanish sur'atlangan	Loyihalar yaxshi boshqarilgan	Yillik tahlilga asoslangan xulosa

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bank tizimida amalga oshirilayotgan loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash – ularning iqtisodiy natijadorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda banklar tomonidan amalga oshirilgan loyihalar 2024-yilga nisbatan ancha yuqori darajadagi moliyaviy samaradorlikni namoyon etgan.

Eng avvalo, banklarning asosiy daromad manbai bo'lmish foizli daromadlar hajmining o'sishi kredit portfeli kengayganidan dalolat beradi. Iste'mol, ipoteka va tadbirkorlik kreditlari orqali mijozlar sonining oshishi foizli tushumlarni sezilarli darajada ko'payishiga olib kelgan. Shu bilan birga, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lami kengaygani natijasida foizsiz daromadlar, ya'ni komissiya va boshqa xizmat haqlari bo'yicha tushumlar ham ortgan. Bu holat bank faoliyatining diversifikatsiyalashganligini ko'rsatadi.[9]

Moliyaviy jihatdan samarali deb topilgan loyihalar soni oshgani bank boshqaruv tizimining takomillashganini bildiradi. Bunda loyihalarning maqsadli rejalashtirilishi, moliyaviy baholash usullarining to'g'ri tanlanishi va samarali monitoring olib borilishi muhim rol o'ynagan. Natijada, loyihalarning sof hozirgi



qiymati (NPV) hamda ichki daromadlilik normasi (IRR) kabi asosiy ko'rsatkichlari oldingi yildagiga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa loyihalardan kelayotgan foydaning real qiymati oshganligini ko'rsatadi.

Bank sarmoyalaridan olinayotgan foyda ko'rsatkichi (ROI) ham ijobiy natija bergan. Bu bank sarmoyalari samarali yo'naltirilgani, ya'ni har bir sarflangan mablag' kutilgan foydani yetkazgani haqida xulosa qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sarmoyani qoplash muddati qisqargan, bu esa banklarning likvidligi va investitsion xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Loyihalarning naqd pul oqimi (ya'ni ularning keltirayotgan pul mablag'lari) xarajatlarni qoplay olish darajasi ham ijobiy o'zgarishga ega bo'lgan. Bu moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ko'rsatkich bo'lib, loyiha faoliyatining o'z-o'zini moliyalashtirish qobiliyatini namoyon etadi.

Shuningdek, loyiha boshqaruvida xodimlarning ishtiroki kuchaygan. Bu bank ichki resurslarining samarali safarbar etilganini va loyiha faoliyatiga malakali kadrlar jalb qilinganini ko'rsatadi. Bu omil, albatta, umumiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.[10]

Yakuniy baholashga ko'ra, 2025-yilgi loyihalar iqtisodiy va moliyaviy jihatdan oldingi yilgidan ancha samarali bo'lgan. Bu holat, bir tomondan, bank tomonidan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining sifatli ekani, ikkinchi tomondan esa, loyiha baholashda zamonaviy yondashuvlar – xususan, PMBOK standartlari va investitsion baholash usullarining joriy etilgani natijasi sifatida talqin etiladi.

Asosiy muammolar:

1. Samaradorlikni baholash mezonlarining notekisligi: Amalda qo'llanilayotgan baholash mezonlari (NPV, IRR, ROI va h.k.) ayrim hollarda to'liq yoki tizimli ravishda qo'llanilmaydi. Bu loyihalar orasida taqqoslash va ustuvorlikni aniqlashda noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida ayrim loyihalar real holatga nisbatan yuqori yoki past baholanishi mumkin.

2. Naqd pul oqimini prognoz qilishdagi noaniqliklar: Loyihalarning pul oqimlari bo'yicha kutilmalar yetarlicha aniq va asosli tuzilmagani sababli,



sarmoyalarni qoplash muddati noto'g'ri belgilanishi, foyda darajasi esa real vaziyatdan og'ishgan holda hisoblanishi mumkin. Bu esa bank kapitalining noto'g'ri taqsimlanish xavfini oshiradi.

3. Xodimlar malakasining loyihalarni samarali yuritishga yetarli emasligi: Loyiha boshqaruvida qatnashayotgan xodimlar ko'pincha zamonaviy baholash uslublari yoki PMBOK kabi standartlar bilan yetarlicha tanish emas. Bu loyiha hujjatlarida xatolarga, noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga va umumiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

4. Foizsiz daromadlar ulushining nisbatan pastligi: Bank xizmatlaridan olinayotgan foizsiz daromadlar (masalan, komissiyalar, xizmat haqlari) o'sayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy daromaddagi ulushi hanuz yetarli darajada emas. Bu esa bankning daromad manbalarini diversifikatsiyalash darajasi pastligini anglatadi va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda loyihalarni moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, amalda ko'pincha standartsiz va sub'ektiv yondashuvlarga asoslanmoqda. 2020–2024 yillarda tijorat banklarida amalga oshirilgan investitsion loyihalar tahlili quyidagi ilmiy natijalarni ko'rsatdi:

1. Loyihalarni baholashda moliyaviy ko'rsatkichlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. 32 ta tijorat banki hisobotlari asosida aniqlandiki, faqat 27% hollarda NPV, IRR, ROI kabi ko'rsatkichlar loyiha qabul qilish jarayonida asosiy mezon sifatida qo'llanilgan. Qolgan hollarda asosan buxgalteriya yoki normativ-huquqiy talablarga tayangan holda qarorlar qabul qilingan.

2. Loyihalarda ko'rsatkichlar prognozi va amaliyotdagi natijalar o'rtasida farq katta. 2020–2023 yillarda amalga oshirilgan 65 ta bank loyihasi tahlil qilinganda, ularning 49%ida IRR 20%dan yuqori prognoz qilingan, amalda esa 14–15% atrofida shakllangan. Bu holat loyihalar moliyaviy tahlili yetarli aniqlikda amalga oshirilmayotganini anglatadi.



3. Tashqi va ichki omillar moliyaviy samaradorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Makroiqtisodiy tahlillarga ko'ra, 2022–2024 yillarda inflyatsiyaning yuqori bo'lishi (yillik 11–12%) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yuqori darajada saqlanishi investitsion loyihalarning NPV va ROI ko'rsatkichlarini 9–11%ga pasaytirgan.

4. Loyihalar samaradorligini baholashda raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasi past. Banklar so'rovi natijalariga ko'ra, faqat 19% tijorat banklarida loyiha baholash uchun maxsus platformalar (masalan, MS Project, Oracle Primavera) qo'llaniladi. Qolganlari Excel kabi sodda vositalar bilan ishlaydi, bu esa tahlilda xato ehtimolini oshiradi.

Bank loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshirish maqsadida bir qator amaliy takliflar ilgari suriladi. Eng avvalo, har bir loyihani baholashda NPV, IRR, ROI va Payback davri kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash majburiy bo'lishi lozim. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha yagona standartlarni ishlab chiqish Markaziy bank va Moliya vazirligining muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu bilan birga, loyihalarni moliyaviy tahlil qilish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida raqamlashtirish va avtomatlashtirish talab etiladi. Xususan, banklarda Project Management Software (PMIS) va Business Intelligence (BI) tizimlarini joriy etish, loyiha hisobotlarini real vaqt rejimida yuritish samaradorlikni oshiradi.

Loyihaning moliyaviy prognozi va real natijalarini taqqoslash tizimini yaratish ham muhim masalalardan biridir. Har bir loyihada rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan erishilgan natijalarni muntazam taqqoslash, mavjud farqlarni aniqlash va ularning sabablarini chuqur tahlil qilish zarur. Bu jarayonni, ayniqsa, sensitivlik tahlili asosida olib borish foydali bo'ladi. Shuningdek, loyiha menejerlari va moliyaviy tahlilchilar salohiyatini oshirish ham dolzarbdir. Ularni PMBOK standarti va xalqaro moliyaviy baholash metodikalariga doir bilimlar bilan muntazam ravishda o'qitish, sertifikatlash kurslarini tashkil etish orqali bank xodimlarining malakasi va professionalligi oshiriladi.

Bundan tashqari, har qanday bank loyihasining investitsiya jozibadorligiga ta'sir etuvchi inflyatsiya darajasi, qayta moliyalash stavkasi, makroiqtisodiy



o'zgarishlar kabi omillarni tizimli baholash zarur. Loyiha baholash modellariga bozor xavflari, ssenariylar va iqtisodiy prognozlar kiritilishi tahlilning ishonchliligi va puxtaligini ta'minlaydi. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan takliflar asosida banklarda loyiha moliyaviy tahlilining sifati oshadi va qarorlar qabul qilish jarayoni ancha ilmiy asoslangan va samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berechman, J. (2009). The evaluation of transportation investment projects. Routledge.
https://api.pageplace.de/preview/DT0400.9781135214081_A24932465/preview-9781135214081_A24932465.pdf
2. Smidt, H. B., & Bierman, H. (2007). The capital budgeting decision: Economic analysis of investment projects (9th ed.). Routledge.
<https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9780203715512>
3. Пелымская, И. С. (2016). Инструментарий экономической оценки инвестиционных проектов. LAP LAMBERT Academic Publishing.
https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/43858/1/978-3-659-93017-1_2016.pdf
4. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jaffe, J. (2022). *Corporate finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
5. (Diskontlash, WACC, CAPM va zamonaviy moliyaviy tahlil vositalari)
6. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2021). *Financial Management: Theory & Practice* (16th ed.). Cengage Learning.
7. (ROI, IRR, CAPM va korporativ moliya yondashuvlari)
8. Project Management Institute. (2021). *A guide to the project management body of knowledge (PMBOK® Guide)* (7th ed.). PMI.
9. (PMBOK asosidagi loyiha boshqaruvi va moliyaviy baholash mezonlari)
10. Damodaran, A. (2012). *Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset* (3rd ed.). Wiley.